

BADIIY MATNDA SINTAKTIK BIRLIKLAR TAHLILI
(arab adibi M. Najibning “O‘g‘ri va itlar” romani misolida)

Asqarova Saidaxon,

saidakhon1216@mail.ru

32/7, Khuroson, Tashkent, 100011. Uzbekistan

Undergraduate student of INTERNATIONAL ISLAMIC
ACADEMY OF UZBEKISTAN

ANNOTATSIYA

Badiiy asarning katta shuhratga erishib o‘z kitobxonlariga ega bo‘lishi asosida uning so‘z boyligi, ta’sirchanligi, yozuvchining mahorati yotadi. Shunday badiiy asarlar borki, yaratilgan davridan boshlab hozirgi kungacha o‘zining aktualligini yo‘qotmay kundan-kunga kitobxonlar doirasi kengayib boradi. Adabiyotshunos va tilshunos olimlar bu asarlarni qayta-qayta o‘rganib, fanda yangiliklar yaratishadi. Bu maqolada mashhur arab adibi Najib Mahfuzning ijodi misolida matndagi sintaktik birliklar tahlil qilindi.

***Kalit so‘zlar:** Najib Mahfuz, “O‘g‘ri va itlar”, sintaktik birliklar, balog‘at, adabiyot.*

Mahmud Najib 1911-2006- yillarda yashab o‘tgan mashhur adib, drammaturg, senarist, 40 dan oshiq romanlar muallifidir. Arab tilining go‘zal qirralarini ochib bergani uchun arab adabiyoti tarixida Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan ilk arab yozuvchisidir. Uning asarlari o‘zining leksik-semantik strukturasi, so‘zlarning qo‘llanilishidagi mahorat, nodir uslub jihati bilan ajralib turadi. Bugungi kunda uning asarlari nafaqat o‘zining ona yurti, Misrda, balki bir necha tillarga tarjima qilinib, dunyoning barcha mamlakatlarida sevib mutolaa qilib kelinmoqda.

Tadqiqot uchun adibning “O‘g‘ri va itlar” nomli romani tanlab olindi. Roman yaqinda qamoqdan chiqqan o‘g‘ri haqida bo‘lib, u qamoqqa tushishiga sababchi bo‘lgan atrofidagi xoinlardan o‘ch olish o‘ziga oldiga maqsad qilib oladi.

Arab adabiyotida stilistika – “balog‘at” deb atalib, u uch qismga bo‘linadi:

- عِلْمُ الْمَعَانِي – ma’nolar ilmi
- عِلْمُ الْبَدِيعِ – notiqlik ilmi
- عِلْمُ الْبَيَانِ – bayon ilmi

Ushbu maqolada balog‘atning bayon ilmi qismi ko‘rib chiqilmoqda. Sintaktik birliklar, metaforalar, sinekdoxa, o‘xshatish va metonimiya aynan shu qismda o‘rganiladi.

Mashhur arab adibi o‘z romanida sintaktik birliklardan qanday uslubda foydalanganini ko‘rib chiqsak.

ارتفعت مناجاة الأشجار (*Daraxtlarning shivirlashi kuchaydi*)

Ushbu jumladagi مناجاة الأشجار so‘z birikmasi noodatiy bog‘lanish turiga kiradi. Arab tilidagi مناجاة leksemasining *maslahatlashish, suhbat qurish* kabi semalari orasidan *shivirlash* semasi daraxtlarning *shitirlash* harakatiga o‘xshatilgan.

انت جنة وسط الرصاص الذي يجد ورأي (*Sen, men tomonga otilayotgan o‘qlar orasidagi jannatsan*)

Qamoqdan qaytgach, Said Mehran yana jinoyat sodir etadi. O‘sha paytda uni unutmagan va qo‘llab-quvvatlagan kam sonli odamlardan biri Nabiviya edi. Aynan unga bosh qahramon bu minnatdorchilik so‘zlarini bag‘ishlaydi va uni “orqada uchayotgan o‘qlar” - politsiya uni ovlagan paytda uning joniga oro kirgani uchun “jannat”.

اخر خيط ذهبي يتراجع من الكوة (*So‘nggi tilla ip derazadan chiqib ketmoqda*)

Jumladagi *tilla ip* so‘z birikmasi – *quyosh nuri* birikmasining o‘rniga ishlatilgan. Qahramon qamoqdan chiqib ozodlikdagi birinchi kunini o‘tkazayotgani, bu kun uzoq kutilgan, o‘zgacha kun bo‘lganligi uchun adib uning har bir daqiqasini, tabiat va osmon jismlari yordamida o‘quvchiga yanada ta’sirliroq yetkazish maqsadida sintaktik birikmalardan mahorat bilan foydalanadi.

Tilla ip birikmasida – *tilla* rang – quyoshning rangiga, *ip* leksemasi esa – quyoshning ip kabi ingichka nuriga o‘xshatilmoqda.

طار رأس القلعة في السماء الصافي (Qal’aning boshi musaffo osmonda uchayotgan edi)

رأس القلعة so‘z birikmasidagi رأس – “bosh” leksemasi tana a’zosi manosidan uzoqlashtirilib uning joylashuvi ya’ni “narsaning yuqori qismi” ma’nosi kuchaytirilmoqda.

Asarda bunday noodatiy bog‘lanishdagi sintaktik birikmalar ko‘p bo‘lib, asosan ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan: أن تلتقي العينان (ko‘zlar uchrashuvi), أسرار الجحيم (jahannam sirlari), شراب الحب (muhabbat sharobi), ألوان الأطعمة (rangin taomlar), صفو (hayotning musaffoligi), قلب أصم (kar qalb).

Najib Mahfuz qahramonlarning obrazlarini ifoda etish maqsadida o‘xshatishlar – tashbeh san’atiga ko‘p murojaat qiladi. O‘xshatishlarda adib qiyos obyektini sifatida asosan jonivorlardan foydalangan.

كنت تتمسح في ساقى كالكلب (Sen oyog‘imga itdek suykalar eding)

Arab tili stilistikasida qiyos obyektini – المشبه, qiyos etaloni – المشبه به, qiyosning formal ko‘rsatkichi – أداة التشبيه, qiyos asosi – وجه الشبه deb nomlanadi.

Yuqoridagi jumlaning tahlil qilsak:

كُنْتُ (أنت) – المشبه

الكلب – المشبه به

كَيْ – أداة التشبيه

تتمسح – وجه الشبه

كان يقف بين يدي كالكلب (Ro‘paramda itdek turar edi)

Yuqorida keltirilgan ikki misolda ham shaxs – oyog‘osti bo‘ladiga, irkit jonivor – itga qiyoslanmoqda. Bu misol orqali hayvon ma’nosini shaxs ma’nosi bilan

almashtirish natijasida ifoda ma'nolari kuchaytirilib o'quvchida salbiy obraz timsoli hamda ularga xos xarakter-xususiyatlarni bo'rttirib ko'rsatish maqsadida, ko'rib o'tilganidek o'xshatishlardan keng foydalanilgan.

تسلق (U yerdan sichqon kabi kallalar mo'ralab turar edi) تشرئب منها الرؤس كالفيران
 السور بخفة و باطراف محنكة كانها اطراف قرد (Maymunniki kabi chaqqon qo'llari bilan
 Uni har tomondan تحرسه الاشجار من كل جانب كالاشباح (osongina devordan oshib o'tdi)
 U قد زهل عن كل شيء فانصب الرصاص كالمطر (daraxtlar arvoth kabi qo'riqlar edilar)
 barchasi haqida unutdi, o'qlar esa yomg'ir kabi yog'ilar edi)

Bu jummalarda shaxslar – sichqonlarga, chaqqon qo'llar – maymunning qo'llariga, daraxtlar – arvothlarga, o'qlar esa – yomg'irga qiyoslanmoqda.

Uning otasi baquvvat, qarindoshlari esa chumoli kabi edilar) ابوه قوي و اهله كالنمل

Qarindoshlar – chumoli leksemasiga qiyoslanib, jumlada chumoli leksemasi - “serurug‘, ko'psonli” ma'nosida qo'llanilgan.

Asarda ibora ko'rinishidagi o'xshatishlarni ham bir necha o'rinlarda uchratamiz, masalan: جسمه النحيل القوي كانه نمر يتربص بفيل (Uning gavdasi filga tashlanmoqchi bo'lgan arslonnikidek baquvvat edi)

Adib asar qahramonining baquvvat, kuchli sifatlarga ega ekanligini bo'rttirib ko'rsatish uchun oddiygina arslonga qiyoslash bilan cheklanmasdan, arslonning eng kuchga to'lgan vaqti – filga tashlanmoqchi bo'lgan holatiga o'xshatadi.

سطم الحنان فيها كالنقاء غب المطر (Yomg'ir keyingi tozalik kabi hotirjamlik uni egalladi), جاءكم من يغوص في ماء كالسمكة و يطير في الهواء كالصقر و يتسلق الجدران كالفأر (Baliq kabi suvda suzadigan, burgut kabi samoda parvoz qiladigan va sichqon kabi devorlarni oshib o'tadigan kishi huzuringizga keldi). Bu tasvirda uyushib kelgan bir nechta o'xshatishlarni ko'ramiz.

Jahon adabiyoti durdonasiga aylangan asarlar muallifi Mahfuz Najib, tildagi sintaktik birliklar, so'z birikmalar, o'xshatishlar va metaforalardan foydalanishda o'zining teran hayotiy mushohadaga ega ekanini ko'rsatgan. Ehtimol shu sababli uning asarlari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otib kelmoqda.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So‘z estetikasi. – T.,1981. – 140. b.
2. Mahmudov N.M. O‘zbek tilidagi soda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. – T., 1984. – 204. b.
3. Mukarramov M. O‘zbek tilida O‘xshatish. – T., 1976. – 169. b.
4. Ne‘matov H. Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T., 1995. – 128 b.
5. Najib Mahfuz. Al-lissu va-l-kilab. – Misr, 1998. – 178 b.